



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING
BUYRUG‘I**

**O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirining 2019-yil 28-dekabrda
406-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha
va maktab ta’limi vazirligi tizimidagi umumta’lim muassasalari boshqaruv, texnik,
xizmat ko‘rsatuvchi va o‘quv-yordamchi xodimlarining namunaviy shtatlariga
o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida**

Ixtisoslashtirilgan hamda ijod maktablarida o‘quv jarayonlarini takomillashtirish, bu borada zamonaviy o‘qitish metodikalari va mexanizmlaridan keng foydalanish hamda dars jarayonlarini laboratoriya mashg‘ulotlari orqali yanada chuqurroq va mustahkam o‘rganishni ta’minlash maqsadida **buyuraman:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirining 2019-yil 28-dekabrda 406-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tizimidagi umumta’lim muassasalari boshqaruv, texnik, xizmat ko‘rsatuvchi va o‘quv-yordamchi xodimlarining namunaviy shtatlariga ilovaga muvofiq o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilsin.

2. Mazkur buyruq Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi bilan kelishilgan.

3. Mazkur buyruq imzolangan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Vazir

Toshkent sh.,
2024-yil “17” - oktabr
335 -son.



X. Umarova

Iqtisodiyot va moliya vaziri

2024-yil “17” - oktabr



Kelishilgan:

D. Kuchkarov

**Kambag‘allikni qisqartirish
va bandlik vaziri**

2024-yil “17” - oktabr



B. Zaxidov

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining
2024-yil 17 - oktabr dagi
335 -sonli buyrug‘iga
ILOVA

**O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirining 2019-yil 28-dekabrda
406-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va
maktab ta’limi vazirligi tizimidagi umumta’lim muassasalari boshqaruv, texnik,
xizmat ko‘rsatuvchi va o‘quv-yordamchi xodimlarining namunaviy shtatlariga
kiritilayotgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar**

1. 1-ilovada:

a) 7-band quyidagi mazmundagi ikkinchi xatboshi bilan to‘ldirilsin:

“Bunda, ixtisoslashtirilgan va ijod maktablarida kimyo, biologiya, fizika bo‘yicha zarur jihozlarga hamda laboratoriya mashg‘ulotlarini o‘tkazish imkoniyatiga ega bo‘lgan laboratoriya xonalarining har biri uchun 1,0 birlikdan laborant lavozimi kiritiladi hamda mazkur bandning birinchi xatboshida nazarda tutilgan to‘lovlar tatbiq etilmaydi.”.

2. 2-ilovada:

a) 8-band quyidagi mazmundagi ikkinchi xatboshi bilan to‘ldirilsin:

“Bunda, ixtisoslashtirilgan maktab-internatlari va ijod maktablarida kimyo, biologiya, fizika bo‘yicha zarur jihozlarga hamda laboratoriya mashg‘ulotlarini o‘tkazish imkoniyatiga ega bo‘lgan laboratoriya xonalarining har biri uchun 1,0 birlikdan laborant lavozimi kiritiladi hamda mazkur bandning birinchi xatboshida nazarda tutilgan to‘lovlar tatbiq etilmaydi.”.